

DINIYLIK VA DUNYOVIYLIK UYG'UNLIGINING JAMIYAT HAYOTIDA AKS
ETISHI

Ergasheva S.U

*Navoiy davlat universiteti Tarix ta'lim yo'nalishi 1-V guruh talabasi**@74202906gmail.com Tel; 97 882 11 07*

Annotatsiya: Mazkur maqolada diniylik va dunyoviylik tushunchalarining mazmun-mohiyati, ularning o'zaro uyg'unligi va bu uyg'unlikning jamiyat hayotidagi aks etishi tahlil qilinadi. Maqolada diniy qadriyatlar va dunyoviy me'yorlar o'rtasidagi muvozanatning saqlanishi ijtimoiy barqarorlik, ma'naviy yetuvlik hamda fuqorolik ongini shakllantirishdagi ahamiyatini yoritladi. Shuningdek, tarixiy tajribalar, zamonaviy jamiyatdagi real holatlar va qonunchilik asosida diniy-dunyoviy uyg'unlikning ijobiy jihatlari ko'rib chiqiladi. Ushbu maqola orqali diniy bag'rikenglik, tolerantlik va dunyoviylik mezonlariga hurmat ruhida ijtimoiy hamkorlikning shakllanishi tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: Diniylik, dunyoviylik, diniy bag'rikenglik, qonunchilik, tolerantlik, siyosat, jamiyat farovonligi, sekulyarizm, ratsionalistik, gumanistik dunyoqarash.

Annotation: This study analyzes the concepts of religiosity and secularism, their interrelation, and how their harmony is reflected in social life. It highlights the importance of maintaining a balance between religious values and secular norms in ensuring social stability, fostering moral maturity, and shaping civic consciousness. The paper examines historical experiences, current realities in modern society, and legal frameworks to explore the positive aspects of religious-secular harmony. Through this topic, the formation of social cooperation based on religious tolerance, mutual respect, and adherence to secular principles is analyzed.

Key words: Religiosity, secularism, religious tolerance, legislation, tolerance, politics, social well-being, secularism, rationalistic, humanistic worldview.

KIRISH

Insoniyat tarixi davomida din va dunyoviylik masalasi doimo dolzarb bo'lib kelgan. Ayniqsa, bugungi globalashuv sharoitida bu ikki tushunchaning jamiyat hayotiga ta'siri yanada kuchaymoqda. Maqolaning dolzarbligi shundaki, unda diniylik va dunyoviylik o'rtasidagi uyg'unlikning mohiyati, ularning jamiyatdagi o'rni va o'zaro ta'siri yoritiladi. Shu boisdan, maqolada bu mavzuga tarixiy, huquqiy va ijtimoiy nuqtai nazardan yondashiladi. Diniylik va dunyoviylik tushunchalari uzoq vaqt qarama-qarshi tamoyillar sifatida talqin qilinganligi bois maskur masalada aksariat holda ikki qarash kuzatiladi. Bir tomondan, ruhoniylar diniy e'tiqod yuksak axloqni rag'batlantirishi, gunoh uchun jazoning mavjud ekanligi borasidagi g'oyalar jinoyatchilik va korrupsiyani kamaytirish, iqtisodiy rivojlanish kabi jamiyat farovonligini ta'minlovchi mexanizm bo'ladi, deb ta'kidlaydilar. Boshqa tomondan, aksariyat tadqiqodchilar dunyoviy hokimiyatning oqilona siyosati jamiyat ravnaq

topishida aholining ommaviy ravishda diniylik darajasini ortishidan muhimroq ekanini ta'kidlaydilar. Izlanishlardan ma'lum bo'ldiki, dinning zamonaviy yuksak taraqqiy etgan jamiyatlardagi ijobiy va salbiy ahamiyati borasida jamiyatshunoslar o'rtasida yakdil fikr mavjud emas.[1] Biroq diniy va dunyoviy davlatlar o'rtasidagi farqqa qaraydigan bo'lsak, ko'p davlatlarda din bilan davlatning bir-biridan ajratilganligini ko'rishimiz mumkin. Sekulyarizm- bu dinni davlat va jamoat ishlaridan ajratishni bildiruvchi tushuncha. U quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi. Huquqiy jihat: Dunyoviy davlat barcha fuqarolarning diniy mansubligidan qat'iy nazar tengligini ta'minlovchi huquqiy normalarning mavjudligini nazarda tutadi. Din va davlatni ajratish va vijdon va din erkinligini ta'minlash. Ijtimoiy jihat: Diniy e'tiqod har bir shaxsning shaxsiy ishi bo'lib, jamoat va davlat institutlariga ta'sir qilmaydigan jamiyatni shakllantirish. Diniy va diniy bo'lmagan qarashlar xil-xilligini hurmat qilish, aholining turli guruhlar o'rtasida bag'rikenglik va muloqatni ta'minlash.[2] Shu bois ham " O'zbekistonni dunyoviy davlat sifatida belgilash- dunyoviy taraqqiyot, turli din va mazhablar o'rtasida bag'rikenglik va totuvlikni mustahkamlashga, diniy birlashmalarning mustaqil faoliyat yuritishiga, din va e'tiqod erkinligini ta'minlashga xizmat qiladi"[3] O'zbekiston dunyoviy davlat hisoblanib, diniy hech qanday chegaralar mavjud emas balki, dinlararo totuvlik, bag'rikenglik va bir-birini hurmat qilish tushunchalari mavjud. XX asr o'rtalaridan boshlab jahon dinlari hisoblangan xristianlik, islom va buddaviylik ta'limotlarining yetakchilari demokiratiya, konstutsion davlat, dunyoviy ta'lim, inson huquqlari, vijdon erkinligi masalalari ularning e'tiqodlariga zid emasligi borasida qator hujjatlar imzolandi. Bunda diniy ta'limotlarning dunyoviylikning ta'moyillariga muvofiqlashish natijasida o'zoro uyg'unlikka erishishga intilayotganligidan darak beradi.[4] Diniy davlat va dunyoviy davlatlarning bir-biridan farqi; Dunyoviy davlatda din va davlat bir-biridan ajratilgan. Davlat hech bir dinga alohida imtiyoz bermaydi va barcha dinlarga nisbatan betaraf bo'ladi. Bunday davlatlarga O'zbekiston, AQSH, Fransiya va boshqa davlatlarni kiritishimiz mumkin. Diniy davlatda siyosiy hokimyat diniy rahbarlar yoki diniy qonunlarga asoslanadi. Dinda ko'rsatilgan me'yorlar davlat qonunlaridan ustun bo'ladi. Bunday davlatlarga Eron, Vatikan kabi davlatlarni kiritishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, diniy va dunyoviylik bir- biridan ayro bo'lmagan so'zlar bo'lib, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotni izga solib turuvchi omillardir. Aslini olganda din va dunyoviylik inson uchun kerak bo'lib, din insonning o'zining shaxsiy e'tiqodi bo'lib unga hech kim aralasholmaydi. Dunyoviylik esa insonlar tomonidan ma'lum bir qonun-qoidalar asosida tuzilgan shakli hisoblanib, davlatning rivojlanishi uchun kerak bo'ladigan qonun- qoidalar majmuidir. Mening naznimda davlat dindan ajratilishi kerak, chunki din va dunyoviylikni bir-biridan ajratmas ekanmiz davlatlar o'rtasida turli xil kelishmovchiliklar va nizolar tugamaydi. Diniy va dunyoviy davlatlarning o'ziga xos afzalliklari va kamchiliklari mavjud bo'lib, ularning qo'llanilishi asosan jamiyatning tarixiy, madaniy va diniy sharoitlariga bog'liq. Zamonaviy dunyoda ko'plab davlatlar dunyoviylik tamoyillariga asoslanib, diniy bag'rikenglik va fuqorolik tengligini ta'minlashga intilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.D Komilov. "Dinshunoslik" "Toshkent" nashriyoti 2020. 54-56 b

2." Yangi O'zbekiston huquqiy, dunyoviy va ijtimoiy davlat sifatida rivojlanishining ijtimoiy, falsafaviy, iqtisodiy va siyosiy masalalari" www.oriens.uz
Ahmedov.A. A 2024.21.05

3.Yangilanayotgan konstutsiya 100 savolga 100 javob. Tax. M. X Raxmonqulov-T.:
" Adolat" milliy huquqqiy axborot markazi 2023.180 b

4.Xotamiy S.M. Islom fakulteti tarixidan- Toshkent: " Minxoj" nashriyoti 2003-yil.